



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buguk  
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 14-aprel, № 73 (9244)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



## MOLIYAVIY JARIMALARNI QO'LLASH AMALIYOTIDA ADOLAT VA SHAFFOFLIK TA'MINLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-aprel kuni tadbirkorlik subyektlariga nisbatan moliyaviy jarimalarni qo'llash tartibini yanada liberallashtirish, bu borada ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan sud nazorati samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Taqdimotda bugungi kunda moliyaviy jarimalarni qo'llash amaliyotida tadbirkorlar uchun qator muammolar saqlanib qolayotgani qayd etildi. Xususan, ayni paytda jarimalarning aksariyati vakolatli organlar, qolganlar esa sudlar tomonidan qo'llanilayotgani sud nazoratini kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Shu munosabat bilan joriy yil 1-oktabrdan moliyaviy jarimalarni ixtiyoriy to'lashni rag'batlantiruvchi yangi va yagona tartibni joriy etish taklif qilindi. Unga ko'ra, tadbirkorlik subyekti vakolatli organning qarori topshirilgan kundan boshlab bir oy ichida jarimani 50 foizini to'lasa, qolgan qismini to'lashdan ozod etiladi.

Shuningdek, jarimani olti oy davomida teng ulushlarda bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini yaratish nazarda tutilmoqda. Bunda qaror

topshirilganidan so'ng bir oy ichida jarima summasining oltidan bir qismi to'lansa, mazkur tartib avtomatik ravishda amal qiladi.

Sud nazoratini kuchaytirish maqsadida vakolatli organning moliyaviy jarimani qo'llash to'g'risidagi qarori sud tomonidan bekor qilingan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda undirilgan mablag'larni 15 kun muddatda qaytarish mexanizmini belgilash taklif etildi. Agar ushbu muddat buzilsa, kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun Markaziy bank asosiy stavkasidan kelib chiqqan holda foiz hisoblanishi nazarda tutilmoqda.

Moliyaviy jarimalarni qo'llash jarayonlarini raqamlashtirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Biznes-ombudsman tomonidan yuritiladigan "Yagona davlat nazorati" axborot tizimida tadbirkorlik subyektlariga

nisbatan qo'llanilgan moliyaviy jarimalarning elektron reestrini joriy etish taklif qilindi.

Vakolatli organlarning qarorlari qabul qilinganidan keyin elektron raqamli imzo bilan mazkur tizimga kiritilishi shart bo'ladi. Axborot tizimiga kiritilmagan va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanmagan qarorlar haqiqiy emas deb hisoblanadi hamda ular asosida jarima undirilmaydi.

Shuningdek, mobil ilova orqali moliyaviy jarimalar hisobini yuritish, ularni monitoring qilish va onlayn to'lash imkoniyatini yaratish, manfaatdor idoralarning axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish zarurligi qayd etildi. Soliq to'lovchi – tadbirkorlik subyekti shaxsiy kabinet orqali moliyaviy jarima to'g'risidagi qarorlar ustidan onlayn shikoyat berish va shikoyat kiritilishi bilan qaror ijrosini avtomatik o'xatib

turish imkoniyatini joriy etish nazarda tutilmoqda.

Taqdimotda huquqiy ta'sir choralarini qo'llash tartibini unifikatsiya qilishga qaratilgan "Huquqiy ta'sir choralarini to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish taklifi bildirildi.

Davlatimiz rahbari tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ularni qonunga rioya etgan holda faoliyat yuritishga rag'batlantirish, jarima qo'llash amaliyotida adolat va shaffoqlikni ta'minlash eng muhim vazifalardan ekanini ta'kidledi.

Takliflarni puxta ishlab chiqib, sud nazoratini kuchaytirish, raqamlashtirishni jadallashtirish va sohada yagona, aniq hamda adolatli huquqiy mexanizmi shakllantirish bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

O'ZA.

### Aks sado



## SALMOQLI NATIJALARGA QARATILGAN MULOQOTLAR

Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning mamlakatimizga amaliy tashrifi qardosh ikki xalq o'rtasidagi tarixiy yaqinlik, siyosiy ishonch va umumiy kelajakka qaratilgan qat'iy irodaning amaliy ifodasi sifatida tarixga muhrlandi, desak, mublag'a emas.

Zero, bugungi global o'zgarishlar sharoitida mintaqa davlatlari o'rtasidagi ishonchli va barqaror munosabatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Buxorodagi muzokaralar davomida do'stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Mazkur tashrifning eng ahamiyatli jihatlardan biri uning faqat siyosiy muloqot bilan cheklanmaganida. Avtomobilsozlik, logistika, infratuzilma, kimyo, geologiya, energetika, butlovchi qismlar ishlab chiqarish kabi yo'nalishlarda yangi tashabbuslar ko'rib chiqilgani, transport yo'laklarini rivojlantirish, chegaraoldi infratuzilmasini

modernizatsiya qilish va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha qo'shma choralar muhokama etilgani bu hamkorlikning iqtisodiy zaminini tobora mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Bu esa ikki davlat uchun ham yangi "o'sish nuqtalari"ni ochadi.

Muloqot chog'ida faqat bugungi iqtisodiy manfaatlar emas, balki ertangi kun taraqqiyotini belgilab beruvchi sohalarga ham alohida urg'u qaratildi. Xususan, "yashil" energiya, suv resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik tashabbuslar, kosmik texnologiyalar, raqamlashtirish, elektron tijorat va startaplarni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlar diqqat markazida bo'ldi.



## Xalqaro anjuman YOSHLAR BANDLIGIGA ERISHISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Poytaxtimizdagi *Renessans ta'lim universitetida "Oliy ta'lim va mehnat bozori hamkorligini rivojlantirish: yutuqlar, muammolar va yechimlar"* mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Unda 20 dan ortiq davlatlardan 60 nafardan ziyod yetakchi olim va mutaxassislar qatnashdi.

Qayd etilganidek, yoshlar bandligini ta'minlashda oliy ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi samarali hamkorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalariga tomonidan berilayotgan nazariy bilimlar amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashgan taqdiridagina bitiruvchilar mehnat bozorida raqobatbardosh kadr sifatida shakllanadi.



## FUQAROLAR OSOYISHTALIGI VA FAROVON TURMUSH ASOSI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqe'larga e'tibor qaratildi, shuningdek, quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

### Fraksiyalar hayoti

#### Tadbirkorlik subyektlari uchun tartibga solish yuki kamaytiriladi

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida davlatimiz rahbarining taklifiga binoan Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 11-aprel kuni mamlakatimizga amaliy tashrifining ahamiyati haqida so'z yuritildi.

Deputatlar so'nggi yillarda O'zbekiston va Qozog'iston munosabatlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganini, ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar nafaqat strategik



sheriklik, balki ittifoqchilik tamoyillari asosida mustahkamlanayotganini alohida qayd etishdi.



## ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARINING MUHIM BOSQICHI

Bugun Markaziy Osiyo – taraqqiyotning yangi va chinakam birdamlik bosqichida. Bunda, albatta, O'zbekiston yetakchisining juda katta hisssasi bor. O'zaro ishonch, yaxshi qo'shnichilik va hurmat muhitini mutlaqo yangi formatda rivojlantirish tashabbuskori ham, avvalo, davlatimiz rahbari.

Yaqinda Prezidentimiz taklifiga binoan Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning amaliy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lgani fikrimizni tasdiqlaydi. Bu tashrif ikki davlat o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik kun tartibini yanada kengaytirish va kelajakdagi ustuvor yo'nalishlarni belgilab olish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

O'zbekiston – Qozog'iston nafaqat iqtisodiy sheriklar, balki umumiy taqdiri hamda kelajagi bir, mintaqaviy yaxlitlikni ta'minlovchi ezgu kuch sifatida

namoyon bo'layotir. Muloqotlarda o'zaro do'stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

#### Birgalikdagi muvaffaqiyatli loyihalar

Qozog'iston yetakchisining mamlakatda yangi Konstitutsiya bo'yicha referendum o'tkazilganidan keyin birinchi xorijiy tashrifining O'zbekistondan boshlashi ko'p narsadan dalolat beradi.



### Senatorlar – hududlarda

## DOLZARB IJTIMOYIY MUAMMOLAR O'RGANILDI

Oliy Majlis Senati a'zolari respublikamizning turli hududlarida bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o'rganmoqda.

Xususan, Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi Abdulhakim Eshmuratov boshchiligidagi ishchi guruh Surxondaryo viloyatining Oltinsoy, Sho'rchi, Qumqo'rg'on va Jarqo'rg'on tumanlarida aholini o'ylantirayotgan dolzarb ijtimoiy muammolarni joyiga chiqqan holda o'rgandi.

Jarayonda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, tomorqalar infratuzilmasini rivojlantirish, mahallalarda jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, yo'l hamda kommunal infratuzilma holati, tibbiy va ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, aholi bandligini oshirish kabi masalalar ham diqqat markazida bo'ldi. Shu bilan birga, fuqarolarning murojaatlari ham ko'rib chiqilib, mas'ul idoralarga tegishli tavsiyalar berildi. Aniqlangan muammolarni tezkor hal qilish bo'yicha choralar belgilab olindi.

Ishchi guruh, shuningdek, Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hamda homiylik ko'magida Oltinsoy tumanidagi To'xtamish mahallasida barpo qilingan zamonaviy ko'priknig ochilish marosimida ham ishtirok etdi.



## BUXORONING YANGI AEROPORTI



FAKT VA RAQAMLAR

Buxoroning yangi xalqaro aeroporti va unga tutash infratuzilmani barpo etish uchun shahar tashqarisidan jami **370 gektar** yer maydoni ajratilgan.

Loyiha doirasida aeroportga olib boruvchi umumiy uzunligi **23,8** kilometrni tashkil qiladigan avtomobil yo'li ham qurilmoqda.

Yo'l bo'yida **2 ta** yo'lo'tkazgich, **9 ta** yer osti piyodalar o'tish joyi va **8 ta** ko'priknig barpo etilishi nazarda tutilgan.

Loyihaga ko'ra, soatiga **1200** nafar yo'lovchiga yuqori darajada xizmat ko'rsatish quvvatiga ega aerovokzal majmuasi quriladi.

# SALMOQLI NATIJALARGA QARATILGAN MULOQOTLAR



Shuningdek, Buxoro viloyati hokimligi situatsion markazi faoliyati bilan tanishilgani ham muhim ahamiyatga ega. Bu orqali mahalliy davlat boshqaruvi zamonaviylashtirish, qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish va hududlardagi muammolarni real vaqt rejimida tahlil etish kabi yondashuvlar namoyish qilindi. Bunday tajriba almashuvi ikki mamlakat o'rtasida davlat boshqaruvi samaradorligi bo'yicha ham o'zaro o'rganish va hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bunday oliy darajadagi uchrashuvning faqatgina muzokaralar stoli atrofida emas, balki madaniy-tarixiy meros obyektlari, muzeylarda davom ettirilgani ham ko'p narsadan dalolat beradi. Oliy martabali mehmonga Xoja Ahmad Yassaviy va Robiya Sultonbegim maqbaralariga oid noyob arxiv hujjatlari nusxalari taqdim etildi. Shuningdek, Ark qo'rg'oni, Poyi Kalon va Labi Hovuz ansambllariga tashrif buyurilib, mazkur obidalarining tarixi, me'moriy xususiyatlari hamda umumiy sivilizatsion merosdagi o'rnini haqida batafsil ma'lumot berildi.

Tashrif yakunlari bo'yicha hukumatlarga erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish topshirilgani esa bu muloqotlarning amaliy natijaga qaratilganini namoyon etadi.

**Oral ATANIYAZOVA,**  
Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.

# YILDAN-YILGA MUSTAHKAMLANAYOTGAN HAMKORLIK

Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning mamlakatimizga amaliy tashrifi O'zbekiston – Qozog'iston munosabatlari bugun yaxshi qo'shnihilik, aniq maqsadlar, ishonch va umumiy strategik manfaatlariga tayanayotganini yana bir bor ko'rsatdi. Bu tashrif ikki davlat o'rtasidagi do'stlik, strategik sheriklik hamda ittifoqchilik munosabatlari yanada mustahkamlanayotganining amaliy ifodasi bo'ldi.

Statistik raqamlarga tayansak, o'tgan yili ikkala mamlakat o'rtasida savdo aylanmasi 5 mlrd. AQSH dollariga yetgani oydinlashadi. Muzokaralarda ushbu ko'rsatkichni yaqin istiqbolda 10 mlrd. dollarga olib chiqish vazifasi qo'yilgani, avtomobilsozlik, infratuzilma, logistika, elektronika, qurilish materiallari, kimyo, geologiya va energetika kabi sohalarda yangi tashabbuslar muhokama qilingani hamkorlikda yangi amaliy bosqich boshlanganidan darak beradi. Bugungi global beqaror sharoitda esa aynan ana shunday aniq iqtisodiy kun tartibi davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga mustahkam poydevor yaratishi muqarrar.

Mamlakatlararo o'zaro savdo hajmini oshirish transport va logistika yo'nalishining rivojiga bog'liq. Shu bois tashrif davomida ayni masalalarga alohida urg'u berildi. Chegaraoldi infratuzilmasini modernizatsiya qilish, tashqi bozorlarga chiqishni ta'minlaydigan samarali transport yo'laklarini shakllantirish, to'siqlarni bartaraf etish haqidagi kelishuvlar butun Markaziy Osiyo uchun katta ahamiyatga ega. Chunki O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi mustahkam aloqa nafaqat ikki davlat, balki butun mintaqa iqtisodiy integratsiyasini tezlashtiradi. Shu ma'noda, Buxorodagi muloqotni kelajak taraqqiyoti uchun umumiy siyosiy va iqtisodiy signal deb baholash mumkin.

Yana bir muhim jihat: hamkorlik bugun

an'anaviy sohalar bilan cheklanib qolmayapti. Raqamlashtirish, elektron tijorat, kosmik texnologiyalar, startaplar va sun'iy intellekt kabi yo'nalishlar ikki tomonlama munosabatlar kun tartibiga kirgan.

Davlat rahbarlarining "National AI Hackathon"ga tashrifi, startaplar hamda akseleratorlar faoliyati bilan tanishuv, yoshlarning texnologik tashabbuslariga berilgan yuqori baho shundan dalolat beradiki, O'zbekiston va Qozog'iston kelajakni faqat xomashyo yoki an'anaviy savdo orqali emas, balki innovatsiya va bilimlar iqtisodiyoti orqali ham birga qurishni maqsad qilmoqda.

Muhimi, bugun hukumatlararo, parlamentlararo hamda hududlararo faollashayotgan aloqalar erdagi fuqaro hayotida yangi ish o'rinlari, kengayirgan bozorlar, tezkor logistika va yuqori texnologik imkoniyatlar ko'rinishida namoyon bo'ldi.

**Aksavli TUMISHOVA,**  
Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi.



Oliy darajadagi Buxoro sammiti yakunlari:

# STRATEGIK SHERIKLIK YANADA KENGAYADI

Xorijiy siyosatshunos va tahlilchilar O'zbekiston va Qozog'iston yetakchilarining uchrashuvi haqida

## Dunyo nigohi

**Antonio ALONSO,**  
Ispaniyaning San-Pablo SEU universiteti professori, Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha mutaxassis:

– Buxoroda bo'lib o'tgan oliy darajadagi O'zbekiston va Qozog'iston sammiti ikki mamlakat o'rtasida kengayib borayotgan strategik sinergiyani yorqin dalildir.

Eng muhimi, yetakchilarning O'zbekiston – Qozog'iston muntazam muloqoti deklarativ emas, balki amaliyotga yo'naltirilgan xarakterga ega. Aniq natijalar – tovar ayirboshlashning o'sishi, sanoat kooperatsiyasining kengayishi va infratuzilma loyihalarning ilgari surilishi ikki tomonlama munosabatlarning barqaror dinamikasini anglatadi. Ko'rsatkichning 5 mlrd. AQSH dollariga yetgani va tovar ayirboshlashni yanada

ko'paytirib, 10 mlrd. dollarga yetkazish maqsad qilingani iqtisodiy ishonch va o'zaro manfaatdorlik yuqori ekanidan dalolat beradi.

Transport-logistika sohasidagi o'zaro bog'liqlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Global ta'minot zanjirlarining o'zgarishi sharoitida aynan shunday tashabbuslar Markaziy Osiyoning muhim tranzit va integratsiya makoni sifatidagi yangi geoiqtisodiy rolini shakllantiradi.

Tomonlarning energetika masalalarini, jumladan, "yashil" energetika sohasidagi loyihalarni, shuningdek, suv resurslaridan oqilona



foydalanishni birgalikda hal etishga intilishi ham ijobiy natijalar bermoqda. Bu yo'nalishlar butun mintaqaning barqaror rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Raqamlashtirish va elektron tijoratdan tortib kosmik texnologiyalargacha bo'lgan innovatsion sohalarda hamkorlikni kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Bu ikki tomonlama hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi.

**Alyona PAVLENKO,**  
ozarbayjonlik taniqli siyosatshunos va jurnalist:

– Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning O'zbekistonga amaliy tashrifi ikki mamlakat o'rtasida so'ngi yillarda shakllangan yuqori ishonch va strategik yaqinlashuvning mantiqiy davomi sifatida baholanmoqda.

Xususan, Tashqi ishlar vazirligi o'rtasida 2026-2027-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturining imzolaniishi va muntazam yuqori darajadagi muloqotlar davlat rahbarlarining siyosiy irodasi amaliy natijalarga aylanayotganini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik bu jarayonda asosiy o'rinni egallamoqda. 10 mlrd. dollarlik tovar ayirboshlash maqsadi nafaqat raqam, balki sanoat kooperatsiyasini yanada chuqurlashtirishga qaratilgan strategik vazifadir. Shuningdek, transport va logistika sohasi hamkorlikning eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ikki davlat temir yo'l tarmoqlari va chegara infratuzilmasini rivojlantirish orqali Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo va Yevropa bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga intilayotir.

Chegara hududida barpo etilayotgan "Markaziy Osiyo" xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi ham muhim loyihalardan biri



hisoblanadi. Ushbu markaz transchegaraviy biznesni rivojlantirish va sanoat integratsiyasini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, 2026-yil 3-aprel kuni Toshkent viloyatida zamonaviy ko'p tarmoqli logistika markazini qurish bo'yicha "EPC" shartnomasi imzolandi. Loyiha "PTC Holding", "O'zbekiston temir yo'llari" va "China Railway Construction Engineering Group" ishtirokida tashkil etilgan "Silkway CA" qo'shma korxonasi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Loyihaning birinchi bosqichiga 84 mln. dollar sarmoya kiritilishi ko'zda tutilgan bo'lib, u temir yo'l infratuzilmasi, konteyner terminali va zamonaviy logistika xizmatlarini o'z ichiga oladi.

Suv resurslarini boshqarish yo'nalishida ham hamkorlik mustahkamlanayotir. 2025-yil noyabr oyida imzolangan transchegaraviy suv obyektlari bo'yicha bitim suvdan samarali foydalanish, ma'lumot almashish va favqulodda holatlarning oldini olish mexanizmlarini belgilaydi.

Energetika sohasida ham yangi tashabbuslar ilgari surilmoqda. Jumladan, Qirg'izistonda Norin daryosida qurilayotgan "Qambar GES-1" loyihasi muhokama qilinmoqda.

Umuman olganda, bu jarayonlar Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik tobora mustahkamlanib, nafaqat ikki tomonlama, balki butun Markaziy Osiyo uchun muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatmoqda.

**Aleksandr VOROBYOV,**  
Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi, Jomoat diplomatiyasi va jahon siyosatini tahlil qilish markazi direktori:



– Prezident Qosim-Jomart Toqayevning Buxoroga tashrifi Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni yanada jadal rivojlantirish manjigiga mos keladi.

Toshkent va Ostona munosabatlari Markaziy Osiyodagi mintaqaviy integratsiyani o'zagi bo'lib, u

bugungi kunda keng qamrovi xarakterga ega. Bu nafaqat ikki davlat o'rtasidagi savdo, balki sanoat kooperatsiyasi, qo'shma korxonalar faoliyati, mintaqadan tashqariga chiqadigan umumiy transport-logistika loyihalari, suvdan foydalanish masalalari va yuqori texnologiyalar bo'yicha hamkorlikdir.

Qozog'iston rahbarining tashrifi ham iqtisodiy va siyosiy masalalar borasida vaqtni to'g'rilash, ham hamkorlikni yanada jadalashtirish yo'lida sharoit yaratish uchun muhim ahamiyatga ega.

Qozog'iston yetakchisining O'zbekistonga tashrifi chog'ida hamkorlikning yuqorida qayd etilgan asosiy yo'nalishlarini yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Geosiyosiy noaniqlik sharoitida O'zbekiston va Qozog'iston rahbariyati ikki tomonlama aloqalarni faollashtirish orqali ham ikki mamlakat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, ham butun mintaqaning barqarorligi va barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan qo'shma hamkorlikni tezlashtiradi.



o'zaro savdo hajmini 10 mlrd. dollarga yetkazishni maqsad qilgan.

2026-yil aprel oyida Samarqandda "madaniy ko'priklar"ni mustahkamlashga qaratilgan ikki mamlakat ilmiy-ijodiy ziyolilarining ikkinchi forumi bo'lib o'tdi.

Shu bilan birga, bugungi kunda O'zbekiston va Qozog'iston sun'iy intellekt ravnaqiga qaratilgan milliy dasturlarni faol rivojlantirishga va sun'iy intellekt bo'yicha umumiy xakatonga birgalikda tashrif buyurish rejalarini ushbu doirab yo'nalishdagi qo'shma hamkorlik rejalaridan yaqqol dalolat beradi.

"Dunyo" AA.

# ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARINING MUHIM BOSQICHI

Avvalo, hududlarda muntazam ravishda norasmiy uchrashuvlar o'tkazish yaxshi an'anaga aylanib, bu ikki tomonlama va mintaqaviy dolzarb masalalarning ochiq hamda konstruktiv muhokamasiga xizmat qilaypti. Barcha darajalardagi aloqalar, jumladan, hukumatlararo va parlamentlararo hamkorlik faollashdi. Tovar ayirboshlash barqaror o'sib, o'tgan yili 5 mlrd. AQSH dollariga yetdi. Avtomobilsozlik, infratuzilmani rivojlantirish, logistika, elektrotexnika, qurilish materiallari va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilyapti. Qolaversa, chegaraoldi infratuzilmani modernizatsiyalash, to'siqlarni bartaraf etish hamda tashqi bozorlarga chiqishni ta'minlaydigan samarali transport yo'laklarini yaratish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani diqqatga sazovor.

Tomonlar Qirg'izistondagi "Qambarota" gidroelektr stansiyasi qurilishi kabi yirik mintaqaviy loyihalarni jadallashtirish va "yashil" energiya eksporti bo'yicha tashabbuslarni ilgari surish ahdida qat'iy. O'zbekiston va Qozog'iston suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda mintaqaviy ekologik tashabbuslarni ilgari surish, jumladan, chegaradosh hududlarda "Toza havo" loyihalari amalga oshirish bo'yicha birgalikda ishlashdan manfaatdor. Madaniy-gumanitar almashinuvlarni faollashtirish, jumladan, madaniyat kunlari, yoshlar forumlarini o'tkazish, kreativ iqtisodiyot va turizm sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash ustuvor maqsadlardan.

Mamlakatlar o'rtasida qo'shma hamkorlik tajribasi yuqori. Qozog'iston hududida, xususan, Qustanayda "Chevrolet" va "SAZ" rusumidagi avtomobillar yig'ish bo'yicha qo'shma korxonalar, Turkistonda to'quvchilik fabrikasi, Chimkentda to'qimachilik korxonasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Qozog'istonning Markaziy Osiyodagi eng yirik savdo sherigidir. Qozog'istonga tabiiy gaz, avtomobillar, transport vositalari, mineral o'g'itlar, to'qimachilik, elektrotexnika hamda qurilish materiallari, meva-sabzavot va boshqa ko'plab tovarlar, turli xizmatlar eksport qilinsa, qo'shni mamlakatdan yurtmizga neft, metall, un, yog'moy mahsulotlari keltiriladi.

## Ortayotgan ishonch va barqarorlik

Bugungi kunda iqtisodiy hamkorlik mutlaqo yangi chizgilariga ega bo'ldi. Qozog'iston O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi eng yirik savdo hamkoriga aylanib, 2020-yildan buyon O'zbekistonning Xitoy hamda Rossiyadan keyingi uchinchi yetakchi savdo sherigi hisoblanadi. Bu esa ikki mamlakat iqtisodiyotining ahamiyati va o'zaro bog'langanini tasdiqlaydi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo



mamlakatlari bilan umumiy hisobda 7 mlrd. AQSH dollariga teng o'zaro savdosining 60 foizi Qozog'istonga to'g'ri keladi. Ayni paytda O'zbekiston – Qozog'iston o'rtasidagi o'zaro savdo Markaziy Osiyodagi hududiy ichki savdoning 25 foizini tashkil qiladi.

Davlat rahbarlari Buxoroda tashkil etilgan, mintaqani har tomonlama monitoring qilish hamda real vaqt rejimida boshqarishni ta'minlaydigan zamonaviy vaziyat markaziga tashrif buyurdi. Bu yerda mintaqa faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar to'planadi, qayta

## Iqtisodiy mustaqillik kaliti

Darvoqe, ikki davlat yetakchilari transport aloqalariga alohida e'tibor qaratib, uni butun Markaziy Osiyo uchun iqtisodiy mustaqillikning kaliti, deya ta'riflashdi. Ushbu strategiya markazida chegara terminalarini modernizatsiyalash hamda Transkaspiy xalqaro transport yo'nalishi salohiyatini mustahkamlash maqsadi turganini ta'kidlash joiz, albatta. O'tgan yili Qozog'iston yetakchisi O'zbekistonni Oqtau hamda Kurik portlarini kengaytirish loyihalari qo'shilishini taklif qildi, bu esa O'rta yo'lakning rivojlanishiga turki beradi.

Shu bilan birga, Fors ko'rfazidagi beqarorlik tufayli nomal'um muddatga to'xtatilgan Shimol – Janub kabi istiqbolli yo'nalishlarni monitoring qilish davom etmoqda. Afg'oniston hamda Pokistondagi vaziyat barqarorlashgandan so'ng janubiy

yo'ldir. Bu jarayonda tahlil markazlari o'rtasidagi muloqot alohida rol o'ynaydi. O'zbekiston Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti hamda Qozog'iston strategik tadqiqotlar instituti allaqachon qo'shma ekspertlar kengashini tuzgan. Uning birinchi yig'ilishi bu yil Toshkentda bo'lib o'tadi, unda yetakchi tahlilchilar davlatlararo aloqalarni chuqurlashtirish bo'yicha aniq tavsiyalar tayyorlaydi.

## Umumiy tarixga hurmat belgisi

Tashrif davomida Qozog'iston Prezidentiga noyob arxiv materiallarining nusxalari ham ko'rsatildi. Bu O'zbekistonda aniqlangan, Turkistonda joylashgan Xoja Ahmad Yassaviy va Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Sultonbegim maqbaralariga aloqador 1920 – 1950-yillarga oid qimmatli hujjatlar, chizmalar va fotomateriallardir.

Qardosh qozoq xalqiga hamda ikki mamlakatning umumiy tarixiga hurmat belgisi sifatida ushbu arxiv hujjatlarining nusxalari Qozog'iston tomoniga hadda yetkazildi. Hozirgi kunga qadar aksariyati ilmiy muomalaga kiritilmagan bu materiallar katta tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega. Noyob me'morlik yodgorliklari bo'lgan Ahmad Yassaviy hamda Robiya Sultonbegim maqbaralari Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy tarixiy-madaniy merosida alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston Qozog'iston bilan sun'iy intellektni rivojlantirish masalasiga ham ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Yetakchilar Buxoro shahrining universal sport majmuasida o'tkazilayotgan "National AI Hackathon" – sun'iy intellekt bo'yicha umumiy xakatonga tashrif buyurishi ham shundan dalolat beradi.

Mazkur tadbir davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yurtimizda sun'iy intellekt ekotimizini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil siyosat doirasida tashkil etildi. Bu yerda raqamlashtirish hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish borasidagi ishlar tahsinga sazovor. Xususan, "Raqamli hukumat" tizimi, transport, bo'xona, soliq, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, energetika, geologiya, qurilish va qishloq xo'jaligi sohalaridagi yechimlar kishi e'tiborini o'ziga tortadi. Ushbu sohalarini raqamlashtirish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirib, aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilayotir.

Global noaniqlik davrida yaxshi qo'shnihilik, hamjihatlik va o'zaro qo'llab-quvvatlash Markaziy Osiyoning asosiy resursiga aylanib bormoqda. Mintaqamizda kechayotgan jarayonlar – bu ongli hamda ortga qaytmis tanlov. O'zbekiston – Qozog'iston munosabatlari yangi pog'onaga ko'tarilishi ikki qardosh xalqning uzoq muddatli manfaatlariga to'la javob berishi bilan birga, mintaqada tinchlik, barqarorlik, xavfsizlik va jadal taraqqiyotni ta'minlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

**Obidjon HAMIDOV,**  
Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**“Ma'lumot uchun aytish mumkinki, hozirgi kunda mamlakatlarimiz birgalikda 1,8 mlrd. dollarlik 78 ta loyihani amalga oshirayotir. Energetika, kimyo, yer osti boyliklaridan foydalanish va mashinasozlik sohalaridagi yirik loyihalar diqqat markazida. Qurilish sektori va logistika infratuzilmasini rivojlantirish ham ustuvor vazifalar bo'ladi.”**

ishlanadi va tizimli ravishda tahlil etiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, investitsiya loyihalari amalga oshirish hamda davlat infratuzilmasining holatidan tortib, transport, jamoat xavfsizligi va fuqarolarning shikoyatlarigacha o'rganiladi. Bunday raqamli mexanizmlar boshqaruvning yangi darajasiga, qaror qabul qilishni yaxshilash va rahbarlar o'rtasida shaxsiy javobgarlikni oshirish imkonini beradi.

O'tgan yilning noyabr oyida ikki davlat rahbarlarining uchrashuvi davomida erishilgan kelishuvlar ijrosi ta'minlangani bois barcha darajalarda aloqalar faollashdi. Biroq hozirgi 5 mlrd. dollarlik savdo aylanmasi oraliq bosqich hisoblanadi. Chuqur sanoat hamkorligi o'sishni ta'minlashi kutilmoqda.

Ma'lumot uchun aytish mumkinki, hozirgi kunda mamlakatlarimiz birgalikda 1,8 mlrd. dollarlik 78 ta loyihani amalga oshirayotir. Energetika, kimyo, yer osti boyliklaridan foydalanish va mashinasozlik sohalaridagi yirik loyihalar diqqat markazida. Qurilish sektori va logistika infratuzilmasini rivojlantirish ham ustuvor vazifalar bo'ladi.

## YOSHLAR BANDLIGIGA ERISHISHDA INNOVATSION YONDASHUV



1 Tadbirida so'zga chiqqan Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi Bahrom Abdullayev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan oliy ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish borasida belgilab hamkorlikni rivojlantirish borasida fikr bildirdi.

Senator o'z so'zida mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, jumladan, ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida yangilash,

innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, ish beruvchilar bilan o'zaro hamkorlikni mustahkamlash hamda kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

Ta'kidlanganidek, ushbu konferensiya ishtirokchilar o'rtasida ilmiy tajriba almashish, yangi yondashuvlarni shakllantirish hamda istiqbolli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim maydon bo'lib xizmat qiladi.

"Xalq so'zi".

## DOLZARB IJTIMOY MUAMMOLAR O'RGANILDI

1 Tadbir davomida senator mahallalarda "xavfsiz hudud" tamoyiliga to'liq o'tish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, fuqarolarning jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi ishtirokini kuchaytirish masalalariga alohida xabarni berdi.

Ishchi guruh tomonidan ilgari surilgan taklif va tashabbuslar asosida jinoyatchilikni qisqartirish, aholi turmush darajasini oshirish hamda xavfsiz yashash muhitini shakllantirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilandi.

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari Sayyora Abdikarimova boshchiligidagi ishchi guruh esa Urganch tumanida aholi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hudud infratuzilmasini yanada takomillashtirish hamda fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan masalalarni izchil o'rgandi.

Unda aholi turmush darajasini yanada yaxshilash, ularni qiynab kelayotgan dolzarb ijtimoiy muammolarni aniqlash va bartaraf etish masalalariga e'tibor qaratildi. Shuningdek, kam ta'minlangan hamda nogironligi bo'lgan fuqarolar holidan xabar olinib, ularning muammolari tinglandi.

Yoshlar uchun zamonaviy va qulay muhit yaratish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish masalalari ham e'tibor markazida bo'ldi. Xususan, tunda fuqarolar uchun dam olish maskanlarini kengaytirish, yangi sayilgohlar va zamonaviy istirohat bog'larini yaratish yuzasidan taklif va mulohazalar bildirildi.

O'rganish yakunida aytilgan taklif va tashabbuslarni tizimli ravishda ko'rib chiqish hamda ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish imkoniyatlarini muhokama qilindi.

"Xalq so'zi".

## "YASHIL" TARAQQIYOTGA YO'NALTIRILGAN FAOLiyAT

Joriy yilning birinchi choragi O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi uchun muhim davr bo'lib, mamlakatning "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonlarini tezlashtirish fraksiya faoliyatida, deputatlarning aholi bilan muloqotida eng ustuvor masalaga aylandi.

"Xalqni eshitish – qonun ijodkorligi – xalqqa yetkazish" tamoyili asosida har bir yangi qonunda xalqchilik sifatini aks ettirish bilan birga, ekologik talablar nuqtayi nazaridan fraksiya muhokamasi ham o'tkazilmoqda. Yurtimizning har bir hududida olib borilayotgan o'rganishlar davomida aholini qiynayotgan nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki ekologik muammolarga ham alohida e'tibor qaratilayapti. Saylovchilar ko'targan har bir masalaning yechimi bo'yicha fraksiya a'zolarining shaxsiy javobgarligi belgilangan.

### Tahlil

So'nggi yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikning oldini olish masalalariga mamlakatimizda jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi, yaqinda start berilgan 2026 – 2030-yillarga mo'ljallangan "Toza havo" umummilliy loyihasi kabi strategik dasturlarning joylardagi ijrosida saylovchilar bilan birga faol ishtirok etishga barcha deputatlarimiz bel bog'lagan.

Yaqinda Prezidentimiz "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ko'chat ekish tadbirida qatnashib, Toshkent shahrining "masafo o'pkasi"ga aylinishi kutilayotgan Milliy dendrologiya bog'ini barpo etishga start berar ekan, bu ishlarida deputatlar faolligini oshiradigan kuchli motivatsiyani e'lon qildi. Ya'ni endilikda hududlarda yashil bog'lar yaratish bo'yicha aholi va deputatlar ishtiroki yanada kengayadi.

Ilgari "Mening bog'im" dasturi doirasida har bir loyihaga byudjetdan 250 mln. so'mgacha mablag' berilgan bo'lsa, endi bu miqdor 400 mln. so'mga oshirildi. Har bir yashil bog' va jamoat parki uchun aholi o'zi tanlagan, yashash hududlariga yaqin va eng muhim, suv ta'minoti mavjud joylardan 1 gektargacha yer ajratiladi. Bu yilgi mavsumdan Qonunchilik palatasining har bir deputatiga ham o'z okrugida yashil hudud va yashil bog' yaratishi uchun 412 mln. so'mdan mablag' beriladi. Bu, ayniqsa, bizning fraksiya va deputatlarimiz uchun katta imkoniyat va mas'uliyatdir.

Fraksiyamiz a'zolarini xalqqa yaqinlashtirayotgan, hududlardagi ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimida katta rag'bat bo'lgan muhim jarayon – Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining joriy yilda ilk bor "Tashabbusi byudjet"da

ishtirok etishi bo'ldi. Davlatimiz rahbarining 2025-yil 29-avgustdagi "Tashabbusi byudjet jarayonlarini takomillashtirish doirasida xalq vakillari va saylovchilar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida mart oyining so'nggi haftasida Ekologik partiyadan saylangan Qonunchilik palatasi deputatlari saylov okruglarida mahallama mahalla o'rganishlar olib bordi. Xalq vakillari hududlarda "Tashabbusi byudjet" jarayonlari doirasida g'olib bo'lmagan, ammo aholi uchun dolzarb hisoblangan loyihalarga alohida e'tibor qaratib, ularning muhimligi, odamlar uchun qay darajada ahamiyatli ekanini obdan o'rgandi.

Qaysi loyiha ijtimoiy ahamiyati jihatdan eng dolzarb, hudud ravnaqi uchun juda muhim bo'lsa, o'shanga e'tibor qaratdi. Shu mezonlar asosida fraksiyamiz a'zolari eng dolzarb 16 ta loyihani tanlab olishdi. Qayd etish lozimki, bunda deputatlar aholi bilan maslahatlashdi. Natijada Ekologik partiyadan saylangan deputatlar 25 mlrd. 600 mln. so'mdan ortiq mablag'ni hududlarda saylovchilar manfaatlariga xizmat qiluvchi loyihalarga yo'naltirishdi.

Misol uchun, mahalla ichki va tashqi yo'llarini asfaltlash bo'yicha 5 ta, ijtimoiy sohaga oid 3 ta, bitta maktab va ikkita maktabgacha ta'lim tashkilotini qamrab olgan loyihalar saralab olindi. Shuningdek, ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash, kutubxona qurish, "Yoshlar mediamarkazi" faoliyatini yo'lga qo'yish, markaziy stadionga sun'iy qoplamali zamonaviy gazon yo'tqizishga oid 6 ta sohaviy loyiha ham deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Ta'kidlanishicha, mazkur o'zgarishlar 50 ming nafardan ortiq nogironligi bor fuqarolar uchun pensiya olish jarayonini soddalashtirish imkonini beradi. Bu esa partiya tomonidan ilgari surilgan, aholining ehtiyojmand qatlamini oltiqcha ovoragarchiliklardan xalos etishga qaratilgan tashabbuslarning amaliy ifodasi bo'ldi.

Deputat Jamol Achilovning fikricha, qonun loyihasi normalarning aniqligi bilan ajralib turadi va uning qabul qilinishi partiya elektorati manfaatlarini himoyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, yig'ilishda "Sudyalar hamjamiyati to'g'risida"gi qonun loyihasi ham muhokama qilindi. Qayd etilganidek, so'nggi yillarda sud tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirilib, muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llamaslik nazarda tutilmoqda.

Amaldagi qonunchilikda jinoyi uyushma tashkil etish yoki unga rahbarlik qilish uchun javobgarlik mavjud bo'lsa-da, mansab vakolatlarini suiiste'mol etgan holda jinoyi uyushmalarga homiylik qilish uchun javobgarlik nazarda tutilmagan edi. Qonun loyihasi bilan mansab vakolatlarini suiiste'mol etgan holda jinoyi uyushmalarga homiylik qilganlik uchun ham javobgarlik belgilash taklif etilmoqda.

Muhokama davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasining mazmun-mohiyati yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini, taklif va tavsiyalarini bildirdi.

Ushbu hujjat mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish

samaradorligini oshirish hamda jinoyatlarining barvaqt oldini olishni nazarda tutadi, – deydi fraksiya a'zosi Shuhrat Yakubov. – Qonun loyihasining qabul qilinishi jamoat joylarida xavfsiz muhitni ta'minlashga hissa qo'shishini e'tiborga olib, uni qo'llab-quvvatladik.

### Elektorat manfaatlarini himoya qilish mustahkamlanmoqda

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab pensiyaga oid xizmatlarni ko'rsatish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama qilindi. Hujjatda pensiya tayinlash jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, inson omilini qisqartirishga qaratilgan normalar nazarda tutilgan. Shuningdek, nogironligi bor shaxslar uchun pensiya tayinlash tartibini yengillashtirish ko'zda tutilmoqda.

Fraksiyamizning joriy yil boshidan buyon qonun ijodkorligi, aholi bilan muloqot qilishi, deputatlik nazorati bo'yicha amalga oshirayotgan ishlari e'tiborga molik. Xususan, o'tgan davrda fraksiyamiz a'zolari Qonunchilik palatasiga ko'rib chiqish uchun kiritilgan bitta qonun loyihasiga hamtashabbuskor bo'ldi. Shu bilan birga, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish yo'nalishidagi munosabatlarni tartibga solish, atrof-muhit monitoringi samaradorligini ko'tarishga qaratilgan 5 ta yaxlit qonun loyihasi ustida ish olib borildi. Shuningdek, Qonunchilik palatasiga ko'rib chiqish uchun kiritilgan 6 ta qonun loyihasiga fraksiyamiz a'zolari mas'ul bo'ldi.

Ularini joylarda keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish maqsadida fraksiya tashabbusi bilan ishlab chiqilayotgan hamda Qonunchilik palatasiga ko'rib chiqilayotgan qonun loyihalari partiya quyi bo'g'inlarida keng muhokamadan o'tkazish, tanishtirish, bu bo'yicha asosli, aniq xulosa va takliflarni olish yo'lga qo'yildi. Har o'ying so'nggi haftasida saylov okruglarida o'tkazilayotgan uchrashuvlar esa Qonunchilik palatasiga ko'rib chiqilayotgan qonun loyihalari va qabul qilingan yangi huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyatini saylovchilarga yetkazishda muhim o'rin tutmoqda.

Fraksiya tomonidan nazorat-tahlil faoliyati doirasida 4 ta tadbir o'tkazildi. Ulardan bittasi davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining axborotini eshitish yuzasidan, uchtasi qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlarga muvofiq fraksiya yig'ilishlarida dastlabki tarzda ko'rib chiqilgan masalalar xususida bo'ldi. Bundan tashqari, fraksiya a'zolari tomonidan Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi bilan hamkorlikda nazorat-tahlil tadbiri o'tkazilib, ularda jamiyat hayoti uchun muhim bo'lgan qonun loyihalarning ijro etilish holati, joylardagi mavjud tizimli muammolar, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida olib borilayotgan islohotlar samaradorligi atroflicha o'rganib borildi.

Yuqoridagi aytganimizdek, har o'ying oxirgi haftasida fraksiya a'zolarining o'z saylov okruglarida o'rganishlar olib borishi hamda aniqlangan muammo va kamchiliklar yuzasidan davlat hamda

xo'jalik boshqaruvi organlari mansabdor shaxslariga deputat so'rovi yuborish amaliyoti jamoatchilik nazorati institutining yaqqol ko'rinishiga aylandi.

Fraksiyamiz deputatlari o'z saylov okruglarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini saylovchilarga yetkazish, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni targ'ib qilish hamda joylardagi dolzarb masalalarni o'rganish bo'yicha faol ish olib bormoqda. Jumladan, yil boshidan buyon o'tkazilgan o'rganishlar davomida 169 ta mahalla fuqarolar yig'ini, 103 ta xonadonga borib, 522 ta uchrashuv o'tkazildi. Ularda 10 160 nafar fuqaro, jumladan, 260 nafar tadbirkor bilan bevosita uchrashuv va muloqotlar tashkil etildi. 171 ta ijtimoiy soha obyektining faoliyati tanqidiy-tahliliy tarzda ko'rib chiqildi. Uchrashuvlar davomida saylovchilar ko'targan 124 ta masala bo'yicha deputatlar tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida ularning aksariyati joyida hal etildi.

Partiyamiz hamda fraksiyamiz ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishidagi huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida faol ish olib boryapti. Jumladan, chiqindilarni boshqarish tizimini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, ularni qayta ishlash va ekologik xavfni kamaytirish maqsadida "Chiqindilar to'g'risida"gi qonun yangi tahriri, atrof-muhit holatini tizimli kuzatish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida esa "Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilmoqda.

Fraksiyamiz kelgusida ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga kamarbasta bo'lib, qonunlar, Prezidentimizning qaror va farmonlari ijrosi ustidan tizimli parlament nazoratini amalga oshirishni maqsad qilgan. Bu borada ijro hokimiyati organlari bilan samarali hamkorlikni izchil davom ettiradi. Pirovardida ularning barchasi mamlakatimiz taraqqiyoti va ertangi kuni uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Abdushukur HAMZAYEV,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari.

## FUQAROLAR OSOYISHTALIGI VA FAROVON TURMUSH ASOSI



1 Fraksiya rahbari Aktram Haitov mazkur tashrif ikki mamlakat o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik kun tartibini yanada kengaytirish uchun muhim qadam bo'lganida hamda o'zaro strategik sheriklik va itifoqchilik munosabatlari tarixida yangi bosqichni boshlab berganini ta'kidladi.

Yig'ilishda Prezidentimizning poytaxtimizdagi Amir Temur xiyoboniga hamda Temuriylar tarixi Davlat muzeyiga tashriflarining ahamiyati xususida ham fikr almashildi.

Fraksiya a'zolari tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat – tadbirkorlik subyektlari uchun tartibga solish yukini kamaytirishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Ushbu hujjat bilan Iqtisodiy protsessual hamda Soliq kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Jumladan, soliq to'lovchi bo'lgan tadbirkorlik subyekti o'zining soliqqa oid huquqbuzarligini tan olgan hamda e'tiroz bildirmagan taqdirda, uning bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish soliq organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilanyapti.

Huquqbuzarlik bartaraf qilinganda hisobvaraqlar faoliyatiga qo'yilgan cheklarni bekor qilish ham soliq organi tomonidan bajarilishi taklif etilmoqda. Bunday yangi tartiblar qoidabuzarliklarni tez fursatda bartaraf qilish va tadbirkor faoliyatini qisqa vaqtda qayta davom ettirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, soliq to'lovchi soliq organining qarori yuzasidan e'tiroz bildirsa, uning bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish soliq organining arizasiga asosan iqtisodiy sud tomonidan amalga oshiriladi.

Muhokama davomida fraksiya

a'zolari qonun loyihasining ahamiyati haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirib, undagi ayrim normalar bo'yicha qonun tashabbuskorlariga aniqlashtiruvchi savollar berdi. Mutasaddirlar barcha savollarga tushuntirish berib o'tdi.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasining qabul qilinishi tadbirkorlik subyektlari faoliyatining barqarorligini ta'minlashga yo'l ochishini e'tiborga olib, uni qo'llab-quvvatladik.

### Uyushgan jinoyatchilik uchun choralar kuchaytirilmoqda

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga uyushgan va jamoat joylaridagi jinoyatchilikka qarshi kurashishning jinoyi-huquqiy mexanizmlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Yig'ilishda qonun loyihasini ishlab chiqish zarurati haqida so'z yuritilib, so'nggi yillarda bezorilik bilan bog'liq jinoyatlarining uyushgan tarzda sodir etilish holatlari kuzatilayotgani, mazkur turdagi qilmishlar nafaqat jamoat tartibini buzishga, balki aholi orasida xavotir uyg'otishga sabab bo'layotgani ta'kidlandi. Bu esa ushbu yo'nalishdagi huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qayta ko'rib chiqishni taqozo qiladi.

Aytilganidek, amalda uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilgan bezorilik uchun ko'p hollarda yengil jazo tayinlanmoqda. Bu esa jazosizlik muhiti shakllanishiga olib kelyapti. Shu sababli, qonun loyihasida bezorilik jinoyati

uchun jazo choralari og'irlashtirilmoqda. Xususan, qonun loyihasi bilan bezorilikning turli shakllari, jumladan, bir guruh shaxslar tomonidan, takroran, qurol ishlatib yoki jamoat tartibini saqlayotgan shaxslarga qarshilik ko'rsatgan holda sodir qilingan qilmishlar uchun jazolar og'irlashtirilmoqda. Shuningdek, uyushgan guruh tomonidan yoki badanga og'ir shikast yetkazgan holda sodir etilgan bezorilik uchun alohida javobgarlik belgilanmoqda.

Bundan tashqari, loyihadagi jangovar sport turlari sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Jangovar sport turlari bo'yicha musobaqalarni qonunga xilof ravishda tashkil etish yoki o'tkazish jinoyi javobgarlikka sabab bo'lishi, unda qatnashganlar esa ma'muriy javobgarlikka tortilishi belgilanmoqda.

Fraksiya a'zosi Jumanazar Otajonovning ta'kidlashicha, mazkur qonun loyihasi mamlakatimizda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish, jamoat joylarida xavfsiz muhitni ta'minlash, kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy choralarni kuchaytirishga xizmat qiladi.

### Jamoat joylarida xavfsiz muhit ta'minlanadi

"Adolat" SDP fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimiz raisligida jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, aholini ommaviy sportga keng jalb etish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining ahamiyati haqida so'z yuritildi.

Deputatlar sohada belgilangan ustuvor vazifalar nafaqat sport natijalarini yaxshilash, balki yaqinda qabul qilingan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunning amalda samarali ta'tbiqiga hamda bu orqali aholi salomatligini mustahkamlash, yoshlarni barkamol avlod etib tarbiyalashga xizmat qilishini qayd etdi.

Yig'ilishda uyushgan va jamoat joylaridagi jinoyatchilikka qarshi kurashish mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi obdan muhokama qilindi.

Bu bilan Jinoyat kodeksiga jinoyi uyushma faoliyatini moliyalashtirganlik uchun alohida javobgarlik kiritish, bunday shaxslarga nisbatan jazoni o'tashdan



u jazolovchi organdan inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi mustaqil institut sifatida shakllandi.

Biroq tahlillar sudyalarning hamjamiyati organlarining huquqiy maqomi, vazifa va vakolatlarini kompleks tarzda belgilaydigan yagona qonun mavjud emasligini ko'rsatgan. Yangi qonun loyihasi aynan shu bo'shliqni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, unda mazkur organlarning turlari, huquqiy maqomi va funksiyalari aniq belgilab qo'yilmoqda.

Muhokama davomida fraksiya a'zolari xorijiy tajribani joriy etishda milliy xususiyatlarni inobatga olish zarurligini ta'kidlashdi. Deputat Dilbar Mamajanova qonun normalarining harbiy sudlarga ta'tbiq qilinishi yuzasidan aniqlashtiruvchi savol bilan murojaat qildi. Tashabbuskorlar esa qonun barcha sudya maqomiga ega shaxslarni qamrab olishini aytdi.

Muhokama yakunida barcha qonun loyihalari fraksiya tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

### Nogironlik pensiyasini tayinlashda yangi tartib

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida pensiyaga oid xizmatlarni ko'rsatish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasi bilan nogironlik pensiyasini fuqarolardan alohida murojaat talab etmagan holda, ya'ni proaktiv tarzda tayinlash belgilanmoqda. Shu bilan birga, I va II guruh nogironlik pensiyasi tayinlanganidan keyin kamida bir yil ish stajiga ega bo'lgan pensionerning pensiyasini har ikki yilda bir marotaba qayta hisoblash ham fuqaroning murojaatini talab qilmasdan (proaktiv shaklda) amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda. Qonun loyihasidagi normalar fraksiya a'zolari tomonidan qizg'in muhokama etildi.

Bugungi kunda aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, inson omilini kamaytirish, fuqarolarga qulaylik yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, – deydi fraksiya a'zosi Noiba Inoyatova. – Qonun loyihasida belgilanayotgan normalar nogironligi bo'lgan shaxslarning pensiya ta'minoti bo'yicha huquq va manfaatlarini yanada kuchaytirishga, pensiya tayinlash va qayta hisoblash jarayonlarini soddalashtirishga xizmat qiladi.

Savol-javob va munozaralardan so'ng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Yig'ilishda ko'rib chiqilgan "Sudyalar hamjamiyati organlari to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokamasida qayd etilganidek, ushbu hujjat bilan sudyalarning malaka darajalarini berish, intizomiy ishlarni ko'rib chiqish hamda vakolatlarni to'xtatish va tugatish tartiblarini huquqiy jihatdan mustahkamlanmoqda. Malaka hay'ati tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan intizomiy choralar qatoriga ogohlantirish, malaka darajasini pasaytirish, quyi lavozimga o'tkazish va vakolatlarni muddatidan ilgari tugatish kabi choralar kiritilmoqda.

Fraksiya a'zosi Dildora Kamolovanning ta'kidlashicha, qonun loyihasi bilan sudyalarning hamjamiyati organlarining turlari, ularning huquqiy maqomi, vazifa va funksiyalari aniq belgilab qo'yilmoqda.

Qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

"Xalq so'zi".

# VATANGA XIZMAT QILISHI — MUQADDAS BURCH VA YUKSAK MAS'ULIYAT

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlarda ijtimoiy faol ayollarning o'ri beqiyos. Suhbatdoshimiz — fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishida o'ziga xos tajribaga ega shaxs, "Sharq ayoli" xalqaro ayollar jamoat fondi asoschisi va boshqaruvi raisi Saodat TURSUNBOYEVA.

"Sharq ayoli" bugun sog'liqli saqlashdan tortib, raqamli iqtisodiyot va intellektual mulkni himoya qilishgacha bo'lgan eng dolzarb yo'nalishlarda davlatning strategik hamkoriga aylangan.

Asli kasbi muhandis-fizik bo'lgan suhbatdoshimizning faoliyati ilm-fan va ijtimoiy menejmentning uyg'unligi bilan

ajralib turadi. U qator nufuzli xalqaro tashkilotlarning faxriy a'zosi, intellektual mulk sohasida xalqaro ekspert sifatida AQSh, BAA, Rossiya va boshqa davlatlarda o'tkazilgan tadbirlarda qatnashib, diplom va sertifikatlar bilan taqdirlangan. Shuningdek, "Ilmiy hamkorlikni rivojlantirganligi uchun" Xalqaro "Znaniye" assotsiatsiyasining oltin medaliga sazovor bo'lgan. YUNESKO tomonidan "Markaziy Osiyoning mashhur ayollari" ro'yxatiga kiritilgan. Ko'p yillik fidokorona mehnati va muhim ijtimoiy tashabbuslari uchun "Shuhrat" medali hamda "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan mukofotlangan. 2020-yildan 2024-yilgacha Toshkent viloyati Kengashi deputati bo'lgan.

## sharoitda tashkilot qanchalik barqaror?

– Biz uchun moliyaviy barqarorlik – bu mustaqillik, ishonch va uzoq muddatli rivojlanish asosi. 1999-yildan, ya'ni tashkil etilganidan buyon fond davlat subsidiyalarga bog'liq bo'lmagan holda, davlat va xorijiy grant mablag'lari, texnik ko'mak dasturlari, startaplarni amalga oshirish hamda ijtimoiy korxonalarini rivojlantirish orqali o'z-o'zini moliyalashtirishning barqaror modelini izchil shakllantirib kelmoqda.

Fond ko'p tarmoqli tashkilot sifatida o'zining raqobatbardosh loyihalarini fuqarolik tashabbuslari asosida ishlab chiqadi va amalga oshiradi, ularni amaliyotga tatbiq etish uchun zarur shart-sharoit yaratadi hamda turli manbalardan moliyaviy resurslar jalb qiladi. Biz barqarorlikni tizimli faoliyat, professional boshqaruv va resurslarni diversifikatsiyalash natijasi sifatida baholaymiz.

Fond faoliyatining strategik yo'nalishlaridan biri yangi texnologiyalar provayderi rolini rivojlantirishdir. Shu munosabat bilan biz innovatsion yechimlarni ilgari surishga ko'maklashamiz hamda O'zbekiston bozoriga istiqbolli kompaniyalar va texnologik tashabbuslarning kirib kelishini qo'llab-quvvatlaymiz. Shuningdek, fond ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish bilan shug'ullanadi, ilmiy g'oyalarni amaliy loyihalar va barqaror biznes modelgacha aylantirish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi.

27 yillik faoliyati davomida o'z oldiga qo'yg'an maqsadlarni ro'yog'ga chiqarish uchun fond yagona muassis sifatida ishtirok etgan shu'ba tuzilmalar tashkil qilishda tajribasi bor. "Sharq sardon" ilmiy va konsalting xizmatlarini bajargan, "Sharq taraqqiyoti" internet-provayderi keyinchalik "Sharq Telekom"ga aylantirilgan, "International Sharq Network" – Davlat test markazi litsenziyasini olgan o'quv markazi. Ushbu loyihalar fond tarixining muhim qismiga aylangan va NNT mustaqillik, professionalizm hamda ijtimoiy mas'uliyat asosida barqaror kelajakni ta'minlay olishini amalda isbotlagan.

## – "Sharq ayoli" fondning tashqi siyosat hamda mintaqaviy madaniy-ijtimoiy aloqalardagi rolini qanday baholaysiz?

– Bugungi kunda O'zbekiston gender tengligi va ayollar huquqlarini himoya qilish yo'nalishida jahon hamjamiyatida o'z pozitsiyalarini ishonchli ravishda mustahkamlab bormoqda. Izchil islohotlar va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash ayollar diplomatiyasini jamoatchilik hamda xalqaro muloqotning muhim vositasi sifatida rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratmoqda. "Sharq ayoli" fondi mamlakatimiz "yumshoq kuchi"ning muhim elementiga aylanib, ayollarni qo'llab-quvvatlash, gender tengligi, ta'lim, bandlik va xalqaro hamkorlik bo'yicha loyihalarni amalga oshirayotgan faol nodavlat notijorat tashkilotlaridan biri hisoblanadi.

Fondimiz MDH va xorijdagi 30 ga yaqin davlatlar ayollar tashkilotlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Shuningdek, raqobatbardosh ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish yuzasidan xalqaro forum va konferensiyalarda muntazam qatnashib, O'zbekiston tajribasini namoyish etmoqda.

So'nggi muhim yutuqlarimiz haqida aytadigan bo'lsak, Abu-Dabida "Ayol va raqamli makon" mavzuidagi jahon ayollar sammitida spiker sifatida qatnashdik, Islom olami ayol tadbirkorlari jahon assotsiatsiyasi bilan xalqaro hamkorlik memorandumini imzoladik, Sankt-Peterburg – Yevroosiyo ayollar forumi doirasida "Ayollar – sog'lom jamiyat uchun" tanlovida Ambassador diplomati bilan taqdirlandik. Bundan tashqari, Yevroosiyo 72 mamlakati qatnashgan tanlovda "Eng yaxshi xalq diplomatiasini" nominatsiyasi

bo'yicha 1-o'rinni egalladik. Shu yilning 16-fevralida esa "TAQDEER – 2025" xalqaro tanlovining short-listiga kiritilib, xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldik.

## – Yaqin besh yilda fond rivojini qanday tasavvur qilasiz? Va zindangacha, muvaffaqiyatli ayol-lider formulasi qanday?

– Yaqin besh yilda uzoq muddatli yo'nalishlarni yanada kuchaytirishni rejalashtirmiz. Xususan, "O'zbekiston XXI asr raqamli formatida", "Ayol va raqamli iqtisodiyot", ayollar salomatligi sohasidagi loyihalar, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, og'ir vaziyatga tushib qolgan insonlarni qo'llab-quvvatlash va boshqa ma'rifiy, gumanitar tashabbuslar hayotga tatbiq etiladi.

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bilan hamkorlikda maktab o'quvchilarini testdan o'tkazish uchun sun'iy intellekt asosida ishlovchi Milliy onlayn psixologik xizmat platformasini joriy qilish startaplari ishga tushirildi.

"N A S M U Z" startapi Prezidentimizning "Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda ushbu sohada parlament nazoratini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmonini amaliy jihatdan ro'yog'ga chiqarish maqsadida ishlab chiqilgan.

Oila va xotin-qizlar qo'mitasi bilan hamkorlikda "Ayollar uchun 360 imkoniyat" dasturini rivojlantirish, fond va Toshkent davlat transport universiteti o'rtasida imzolangan memorandum doirasida innovatsion loyihalarni rivojlantirish, Qoraqalpog'istonda 20 dan 45 yoshgacha bo'lgan ayollar uchun ko'chma mammografiyada bepul mammoskrining o'tkazish startapini uddalash maqsad qilingan. Shuningdek, Mudofaa vazirligining ixtisoslashtirilgan maktablari bazasida "O'zbekiston vatanparvari" ma'rifiy-tarbiyaviy loyihasi amalga oshirish boshlandi.

O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirish va ayollarimizning global taraqqiyotda faol ishtirokchi sifatidagi joiy imijini mustahkamlash maqsadida fond yana bir necha strategik tashabbuslarni ilgari suradi. Toshkent shahrida Butunjahon xayriya jamg'armalari va nodavlat notijorat tashkilotlari kongressini o'tkazish, Shimol va Janub, G'arb va Sharq mamlakatlari tashkilotlarini "Tinchlik, hamjihatlik va har bir oilaga farovonlik" shiori ostida birlashtiruvchi doimiy faoliyat yurituvchi xalqaro platformani yaratish shular jumlasidan.

Ayni paytda fondimiz 34 ta loyihani amalga oshirmoqda. Ushbu loyihalar bir-birini to'ldiradi va yagona rivojlanish tizimini shakllantiradi. Biz uchun xodimlarning ma'naviyati alohida ahamiyatga ega. Faoliyatimiz zamirida Vatanga sadoqat va vatanparvarlik tuyg'usi mujassam. Biz har bir loyihani yurtimiz taraqqiyoti, jamiyat farovonligi va kelajak avlodlar manfaatini yo'lida amalga oshirishni sharaflaymiz.

Nazarimda, muvaffaqiyatli ayol-rahbar formulasi uchta asosiy tamoyilga asoslanadi: vatanparvarlik, professionalizm va milliy qadriyatlar. Ayol-rahbar strategik fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi, noaniqlik sharoitida ham to'g'ri qaror qabul qilishi va natija uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi lozim. Shu bilan birga, odamlarni eshitish, hamkorliklarni yo'lga qo'yish va boshqalarning o'sishi uchun imkon berish zarur. Haqiqiy liderlik faqat maqsadlarga erishish emas, balki yangi yetakchilar shakllanadigan muhitni yaratishdir. Muhimi, Yangi O'zbekistonda bunday orzu-niyatlar ro'yobi uchun barcha shart-sharoit yaratilgan.

## – Mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur.

Munisxon KARIMOVA ("Xalq so'zi") suhbatlashdi.

# Qorako'lda tayyorlangan mahsulot Nyu-Yorkda sotilmoqda

Buxoro viloyatining chekka tumanlaridan sanalgan Qorako'lda ishlab chiqarilayotgan sport liboslarining bozori chaqqon.

## Eksport

"Xo'jalar" kichik sanoat zonasi hududida faoliyat yuritayotgan "Parvoz fayz plus baraka" mas'uliyati cheklangan jamiyatida tayyorlanayotgan bu mahsulot o'zining havo o'tkazuvchanligi, yengilligi bilan ajralib turadi. Xaridor esa, odatda, aynan shunday sifatli va qulay, nisbatan arzon mahsulotni tanlaydi.

AQSh bozorini sinchiklab o'rganish jarayonida bunday libosga yiliga 100 mln. dollar miqdorida talab borligi aniqlandi. Pirovardida "Parvoz fayz plus baraka" megapolis shahar – Nyu-Yorkda savdo uyini ochdi. Ayni paytda korxonaning "HAJ TEX" brendi ostida tayyorlangan sport libosi shu savdo shoxobchasi orqali sotuvga chiqarilmoqda.

Atigi bir yil muqaddam ish boshlagan mazkur korxonada bank tomonidan ajratilgan 4,5 mlrd. so'm miqdoridagi kredit mablag'idan samarali foydalanib, sexlarni zamonaviy uskunalar bilan jihozlab, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarmoqda. Tinimsiz izlanish esa unga tashqi bozordan o'z-o'zini topish imkonini yuzaga keltirmoqda. Korxonada 400 tadan ziyod ish o'rinlari yaratilgan ham e'tiborga molik.

Istam IBROHIMOV ("Xalq so'zi").

# Tutazorlar pillachilik rivojining poydevori

Pillachilik mamlakatimizda iqtisodiy ahamiyati katta tarmoqlardan. Ilmiy yondashuvlar asosida sohada zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish natijasida bir vaqtlar yil davomida faqat bir marta hosil yig'ib olingan bo'lsa, hozirda bu uch marta gacha yetdi.

## Olimkorlik

Pillachilikdagi bunday yutuqlar tutchilikka ham tub burilishlarga sabab bo'ldi. Zero, ipak qurtining asosiy ozuqasi bo'lmish daraxtning iqlimga mos yangi navlarini yaratish orqali hosildorlikni hamda sifat darajasini oshirish mumkin. Bu borada Marhamat tumanidagi "Ipak ko'chat" klasterida yo'lga qo'yilgan ishlar e'tiborga molik.

Tut ko'chatlari an'anaviy usulda payvandlash yoki urug' orqali o'stirilsa, klasterdagi "In-vitro" laboratoriyasida tirik hujayralardan foydalanib, ko'chatchilikni rivojlantirish tajribasi amalga oshirilayotir, – deydi klaster rahbari Abdulfatoh Musulmonqulov. – E'tiborli, bu usul ko'chatlarni kasalliklarga chidamli va iqlim sharoitiga mos yetishtirish imkonini ham beradi. Qolaversa, an'anaviy payvandlash orqali bir gektar maydonda 50 ming tup ko'chat olinsa, urug' orqali bu ko'rsatkich 250 ming tuggacha yetadi. "In-vitro" laboratoriyasida esa har 21 kunda 600 ming tup nihol undirish mumkin. Dastlabki hisob-kitobga ko'ra, yangi usulda o'stirilgan ko'chatlar soni bir yilda 10 mln. 200 ming tupni tashkil etadi.

"In-vitro" usuli orqali parvarishlangan ko'chatlar yuqori hosildorligi, turli kasalliklarga chidamli, mustahkam va mahalliy sharoitga tez moslashuvchanligi bilan ham ahamiyatli.

Hozirda klaster laboratoriyasida tutning ikki xil durayga turli yaratildi. Dunyoning 16 davlatidan olib kelingan 240 navdagi tut ko'chatlarining kolleksiyasi barpo etildi. Bu esa mahalliy sharoitda yangi tut navlarini yaratish va ularni sinovdan o'tkazish imkonini bermoqda.

Saminjon HUSANOV ("Xalq so'zi").

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining a'zosi Anvarxon Temirovga volidai muhtaramasi

Xizira NOSIROVAning

vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik izhor etadi.

## Bizning intervyu

### – Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2026-yil "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilinib, "Inson – jamiyat – davlat" tamoyili asosida ishlarni yanada kuchaytirish urg'ulandi. 2026-yilgi davlat dasturini amalga oshirishda NNTning rolini qanday baholaysiz?

– So'nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyat hayotidagi rolini oshirish bo'yicha noyob tizim shakllantirildi. Bu borada nodavlat notijorat tashkilotlarning o'ri strategik ahamiyatga ega. Bugungi kunda O'zbekistondagi nodavlat sektor shunchaki jamoat birlashmalari emas, balki yuqori ekspertlik salohiyatiga ega professional institutlarga aylandi. Bizning tashkilotlarimiz endilikda loyiha boshqaruvi, raqamli transformatsiya va ijtimoiy monitoring bo'yicha davlat organlariga sifatli tahlil va yechimlar taklif eta oladigan darajaga yetdi. 2026-yilgi davlat dasturi doirasida NNTning roli faqat "ijtimoiy ko'mak" bilan cheklanmaydi. Biz endilikda inson kapitalini rivojlantirish va mahallabay ishlash tizimida ijtimoiy samaradorlikni ta'minlash bo'yicha drayver bo'lishimiz shart.

Aynan shu yerda ayollar va yoshlar bandligi, oilalarni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, huquqiy va raqamli savodxonlikni oshirish kabi aniq masalalar hal etiladi. NNT aholiga yaqinligi va faoliyatidagi moslashuvchanligi tufayli ijtimoiy chaqiriqlarga tezkor javob berish va manzilli ishlash imkoniyatiga ega. Ishonamanki, kuchli, professional va ijtimoiy mas'uliyatli NNT 2026-yil davlat dasturini amalga oshirishda ishonchli tayanch hisoblanadi.

### – Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi va Prezidentimizning "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni tashkilot faoliyatida qanday o'zgarishlarga, yangiliklarga sabab bo'ldi?

– Bu mamlakatimizning zamon talablariga mos tarzda rivojlanishi uchun tarixiy qadam bo'ldi. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi va Prezidentimiz Farmoni O'zbekiston o'zining raqamli kelajagini izchil va ishonch bilan shakllantirayotganining yaqqol tasdig'idir. Biz ushbu hujjatlarini innovatsiyalar, bilim va teng imkoniyatlar davrining davomi sifatida qabul qildik.

Bugun sun'iy intellekt iqtisodiyot, ta'lim va tadbirkorlik rivojida kuchli vositaga aylanmoqda. Eng muhimi, bu jarayonlarda ayollar kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchi va o'zgarishlar yetakchisi bo'lishi dardkor.

Amaliy qadamlarga keladigan bo'lsak, 2025-yilda "Sharq ayoli" fondi tomonidan "Raqamli iqtisodiyot – global integratsiya uchun ko'priklarni" nomli xalqaro forum tashkil etildi. Uning doirasida elektron tijorat, sun'iy intellekt, marketpleyslar bilan ishlash va moliyaviy barqarorlik masalalari bo'yicha tematik sessiyalar o'tkazildi. Ayollar, ayniqsa, nogironligi bo'lgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

Forumda 10 ta mamlakatdan

xalqaro tashkilotlar, biznes vakillari va ayollar yetakchilari qatnashdi. Mahorat darslari va amaliy sessiyalar o'tkazildi. 2 mingdan ortiq ayollar onlayn formatda, 30 nafar nogironligi bo'lgan xotin-qiz va 100 nafar tadbirkor ayol oflayn seminarlarda moliyaviy barqarorlik, islom moliyasi hamda moliyalashtirish imkoniyatlari, jumladan, "Anor" banki orqali mablag' jalb qilish masalalari bo'yicha ishtirok etdi. Loyihalarimiz doirasida "temir daftar" ro'yxatidagi va tadbirkor ayollarning 5 mingdan ziyodi bepul o'qitildi. Eng muhimi, ayollar raqamli iqtisodiyot ular uchun ochiq ekanini his qildi.

### – Jamg'arma qanday ta'limiy loyihalarni amalga oshirmoqda?

– Fondimiz Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ko'magida xorijiy moliyalashtirishni jalb etgan holda qator loyihalar ijrosi ustida ishlamoqda. Jumladan, qishloq maktablarida xorijiy tillarni o'rganish uchun interfaol doskalar, mebel va kompyuter texnikasi bilan jihozlangan 11 ta zamonaviy "smart" sinf xonalari tashkil qilindi.

Rossiyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan imzolangan memorandumlar asosida qishloq maktablarining 250 dan ortiq



nazoratida qanchalik faol qatnashmoqda?

– "Sharq ayoli" fondi tuzilmasida huquqiy, ijtimoiy, moliyaviy va innovatsion departamentlar doimiy faoliyat yuritadi. Ular ayollar va boshqa fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarni tizimli tahlil etadi, qonunlarning hududlardagi ijrosini monitoring qiladi hamda davlat organlari uchun amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqadi. Bizning asosiy tamoyilimiz – tanqid uchun tanqid emas, balki konstruktiv muloqot va hamkorlik.

Shu bilan birga, ishchi guruhlarimiz jamoatchilik eshituvlari va ekspertlik

**"Sharq ayoli" fondi tuzilmasida huquqiy, ijtimoiy, moliyaviy va innovatsion departamentlar doimiy faoliyat yuritadi. Ular ayollar va boshqa fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarni tizimli tahlil etadi, qonunlarning hududlardagi ijrosini monitoring qiladi hamda davlat organlari uchun amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqadi. Bizning asosiy tamoyilimiz – tanqid uchun tanqid emas, balki konstruktiv muloqot va hamkorlik.**

bitiruvchilari grant asosida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Fond ta'lim sohasiga innovatsiyalarni joriy etishda ham faol. Misol uchun, robototexnika boshqaruviga mo'ljallangan milliy simulyatsion platforma ishlab chiqilmoqda, fizika, kimyo va biologiya fanlari bo'yicha raqamli laboratoriyalar yaratilmoqda, shuningdek, "Cyber Park" hududida robototexnika smart-sinfi ochildi.

Infratuzilmaviy loyihalar borasida esa Toshkent shahridagi 180 va 94-umumta'lim maktablari zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanayotganini, xususan, Janubiy Koreyaning "Good Neighbors" fondi moliyalashtirishi asosida Toshkent viloyatining Yangi Qo'rg'on tumanida 240 o'rinli yaqqol maktab binosi qurilayotganini aytish mumkin. Shuningdek, Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi 4-umumta'lim maktabida, Xo'jayli tumani va Nukus shahrida joylashgan serebral falaj va eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim oladigan maktab-internatlarda 10 – 12 kVt quvvatga ega quyosh panellari o'rnatildi. 16-oilaviy poliklinika ham 10 kVt quvvatli quyosh panellari bilan ta'minlandi.

### – Yurtimizda ayollar manfaatlarini himoyalovchi qator qonunlar qabul qilindi. Ularning muvaffaqiyatli ijrosi joylardagi mas'ullar faoliyatiga bog'liq. Muassasangiz jamoatchilik

muhoakamarida faol qatnashadi. Fond faoliyatida jamoatchilik nazorati sertifikatlangan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Xodimlarimiz davlat xaridlari, mehnat qonunchiligi, byudjet advokatsiyasi hamda "Jamoatchilik nazorati to'g'risida" gi Qonun ijrosi bo'yicha maxsus treninglardan o'tgan. Tadqiqot tashabbuslarini ishlab chiqish, ilg'or tajribalar va texnologiyalar transferini yo'lga qo'yish yuzasidan ham tajribamiz bor. Loyihalarga nafaqat mahalliy, balki xorijiy ekspertlar ham jalb etiladi.

Gender loyihalarini amalga oshirishda biz, asosan, Senat, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi bilan hamkorlikda ish olib boramiz.

Amaliy natijalarga to'xtalsak, o'tgan yili ayollarning fuqarolik jamiyatidagi ishtirokini oshirish konsepsiyasi uchun 10 ta taklif ishlab chiqildi. Shuningdek, "Ayol va raqamli iqtisodiyot" loyihasi doirasida soliq qonunchiligini takomillashtirish, ayol tadbirkorlar uchun elektron savdo subyekti maqomini kengaytirish, soliq imtiyozlarini qo'llash mexanizmlarini kuchaytirish hamda kichik va mikrobiznes subyektlari gradatsiyasini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlandi.

### – "Sharq ayoli"ning strategik maqsadi nima va bugungi

"Asaxiy books" loyihasi doirasida Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona yonida navbatdagi ziyo maskani ishga tushirildi.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo**

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 329. Buyurtma G-1242. 23 407 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:  
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va mulqat qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
**100066,**  
**Toshkent shahri,**  
**Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.**  
Navbatchi muharrir G. bahromov.  
Musahhah S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 21.00 Topshirildi – 23.50 **1 2 3 4 5 6**